

Farangiz Abdurahmonova

Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi hamda Shukur Xolmirzayevning "Chillak o'yin", "Bulut to'sgan oy", "Omon ovchining o'limi" hikoyalari badiiy tahlilga tortilgan. Shuningdek, o'zbek xalqining milliy koloritini aks ettirishda yozuvchilarning mahorati, o'ziga xos yondashuvi xususida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Surxon adabiy muhiti, novator, qadriyat, psixologik tasvir, psixologik tahlil.*

Jannatmakon yurtimizning janubiy vohasi hisoblangan va qadimdan turfa an'ana-yu qadriyatlarga boy bo'lgan viloyati – Surxondaryo. Bu go'zal diyordan qalami o'tkir yozuvchilar, nafis his-tuyg'ularni turli bo'yoqlarda aks ettiruvchi shoirlar yetishib chiqqan. Tog'ay Murod, Shukur Xolmirzayev, Erkin A'zam, Eshqobil Shukur, Qo'chqor Norqobil, Usmon Azim, Sirojiddin Sayyid, Mirzo Kenjabek kabi iste'dod egalari shular jumlasidan. Bu ijodkorlar o'ziga xos adabiy muhitni-Surxon adabiy muhitini shakllantirdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan, Surxon adabiy muhitining darg'alaridan Tog'ay Murod va Shukur Xolmirzayev o'ziga xos yozish uslubining betakrorligi, ijodining yorqinligi va tug'ma iqtidori tufayli Surxon vohasining dovrug'ini olamga yoydi.

Tog'ay Murod asarlarida go'zal vohaning ifori ufurib turadi, binobarin, u Surxon dialektining jozibasidan mohirona foydalanib, kitobxonlar yuragining tub-tubidan joy olgan o'lmas asarlar yaratgan. Adibning asar yozishdagi o'ziga xos yondashuvi boshqa yozuvchilardan keskin farq qiladi: u juda sodda, deyarli bir xil, ammo juda tez ta'sir qiluvchi grammatik qolipni afzal ko'radi. Yozuvchining

kitoblarini mutolaa qilayotgan o'quvchi o'zini xayolan xuddi unga so'zlovchi o'z boshidan o'tkazganlarini hikoya qilayotgandek, u esa tinglovchi bo'lib bu ajib hikoyatlardan bahramand bo'layotgandek his qiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Tog'ay Murod o'zbek adabiyotiga o'tgan asrning 70-yillarida o'zgacha qalami bilan kirib kelgan novator yozuvchilardan hisoblanadi. Novator (lotincha - "yangilovchi", "yangilik yaratuvchi", "yangi yo'l ochuvchi") – adabiyot olamiga yangicha yo'nalish, o'zgacha yozuv uslubini olib kirgan hamda bu uslubi bilan o'zga adiblardan tubdan ajralib turadigan ijokor.

Tog'ay Murodning dastlabki yirik asari - "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi. Bu asarda yozuvchi surxon kishilarining tabiatini, o'zgacha xarakterini, yashash tarzini, ular uchun nihoyatda qimmatli bo'lgan urf-odat va an'analarini, shuningdek, or-nomus, g'urur, halollik, kamtarlik va, eng muhimi, oddiylikning insonlar hayotida naqadar kerakli ekanligini ajib bir mohirlik bilan yoritib bergan. Chunonchi, ushbu qissa o'zbek xalqining milliy koloritini o'zida mujassam etgan qadriyatlari-yu an'analarini bor bo'y-basti bilan quyuq bo'yoqlarda gavdalantiradi. Shu o'rinda "qadriyat" istilohiga to'xtalib o'tsak, "qadriyat" - (arabcha- *قدریت* – qiymat, ahamiyat; qimmatbaho buyumlar; xalq boyligi) voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy, ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan barcha narsalar, masalan, tinchlik, ma'rifat, haqiqat, moddiy va ma'naviy boyliklar qadriyat hisoblanadi.

Asar ekspozitsiyasi elning barcha milliy qadriyatlarini o'z ichida jamuljam qilgan to'y tasviri bilan boshlanadi. Avvalambor, to'y deb atalmish quvonch va baxtdan darak beruvchi marosimning xabarini yetkazish ham alohida an'ana sanaladi. To'yga taklif qilish uchun jarchi belgilanadi, u hammani baralla ovozda to'yga aytib chiqadi, so'ngra to'y bekasi har bir xonadonni alohida-alohida taklif etadi, biroq bu yetmaydi, kamlik qiladi. El ko'ngli to'lmagach,

“... Zulfiqor polvon (to'y egasi) ot mindi.

El-yurtni o'z nomidan aytdi.

El-yurt ko'ngli nozik-da.

To'y bekasi aytgan boshqa, to'y xo'jasi aytgan boshqa..." [1:3]

Bu holatdan ko'rinib turibdiki, o'zbeklar o'tmishdan o'z izzat-nafsini saqlaydigan xalq bo'lgan, shuning uchun ham ular "chaqirilgan joydan qolma, chaqirilmagan joyga borma" degan xalq maqolini o'zlariga dasturilamal qilib olishgan.

To'yda o'tkaziladigan go'zal urf-odatlarimizdan biri – sochqi sochish. To'yga tashrif buyurgan ayollar har xil sochqilar sochadi: yong'oq, pista, mayiz, konfet. Bolalar esa ularni terib oladi. Bu udumning o'z ramziy ma'nosi bor, ya'ni sochqi sochgan ayollar: "Bizni ham shunday kunlarga yetkazsin", – deya ezgu niyat qilganlar va bolakaylarni quvontirganlar.

To'yona-to'yga kelgan mehmonlarning mezbon uchun atagan hadyalaridir. Surxon vohasi odamlari uchun eng qimmatbaho to'yona – qo'y-echki olib kelish. Jumladan, asarda ham Zulfiqor polvonning yaqinlari: qadrdon oshnasi echki, kuyovi esa qo'y yetaklab keladi. Shundan ham bilib olish mumkinki, Surxondaryo, Qashqadaryo hududlarida chorva mollari qadrlanadi va shunga yarasha juda ko'p boqiladi.

Qissada bolalarning sevimli mashg'ulotlari - o'zbek xalq o'yinlariga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ular shunday yuksak mahorat bilan tasvirlanganki, adib o'yinlarning har biriga alohida to'xtalib, ularning o'ynalish tartibigacha mufassal ta'riflab bergan. Misol uchun, oqsuyak, moyak urishtirish, yong'oq, oshiq, shumshak, quloq-cho'zma, do'l, g'irboydi, chillak, zuvillatar kabi xalq o'yinlarining bolajonlar uchun g'oyatda suyumli ekani ta'kidlab o'tilgan.

Adabiyot jarayonga shiddatli bo'rondek talotumlar bilan kirib kelgan taniqli Surxon adibi Shukur Xolmirzayev o'zining durdona asarlari bilan kitobxonlar qalbini zabt etdi. Uning asarlari noodatiy obrazlari, bir-biriga umuman o'xshamagan taqdir egalari, o'quvchini fikrlashga, tafakkurini charxlashga majbur qilgani uchun ham o'quvchilar uchun bag'oyat qadrlidir.

Adibning "Chillak o'yin" hikoyasi butunlay bolalarga, ularning rosa sevib o'ynaydigan chillak o'yiniga bag'ishlanadi. Hikoyada bolajonlarning o'z xayoliy g'aroyibotlariga to'la ertaknamo olami qalamga olinib, bu g'aroyib olamni to'ldirib

turgan qizg'in o'yin - chillak, uni o'ynash tartibi, g'oliblik nash'asi-yu mag'lubiyatning achchiq ta'mi, zafar qozongan bolakayning shodligi-yu yutqizgan bolaning jazolanishi o'ziga xos talant bilan qog'ozga tushirilgan. Asar muallifi hikoyaga izoh tariqasida quyidagi fikrlarni berib o'tadi:

“O'ylab qarasam, bolalar o'yinlarida gap ko'p ekan. Biz o'sha o'yinlarda faqat jismonan emas, balki ma'naviy jihatdan ham chiniqar ekanmiz. Qanday odam bo'ldik? Bu chetdan qaraganda ma'lum. Biroq bizdagi, shaxsan o'zimdagi ayrim sifatlar zaminini ham o'sha o'yinlarda ko'raman. Axir, o'yinda g'irromlik qilgan ayrim do'stlarimizning keyinchalik, katta bo'lganidan keyin ham hayotda g'irromlik qilganlariga guvohmiz. Yoxud buning aksicha. Qisqasi, bolalik o'yinlari har birimiz uchun ajib bir sinov davrlari-jabhalari bo'lar ekan” [2:110]. Ushbu jumlar fikrimizni tasdiqlab, bolalar o'yinlarining maqsadi, vazifasi va tarbiyaviy ahamiyatini ochib beradi. Asar qahramoni Bo'rijon ham maktabdan bo'sh vaqtlarida o'zidan yoshi kattaroq Rahmat ismli o'rtog'i bilan chillak o'ynaydi. Rahmat go'l va mug'ambirlikni bilmaydigan sodda bola, Bo'rijon esa aksincha xiylagina quv, hiylagarroq. U doim o'rtog'ining go'lligidan foydalanib, vaziyat yetildi deguncha yengilganining jazosini o'tamasdan qochib ketadi. O'yin qoidasiga ko'ra, jazo tariqasida yengilgan bola bolasop tushgan joydan marragacha zuvullab, nafas olmasdan yugurib kelishi shart. Hikoya davomida Bo'rijon xarakterida dinamik o'sish, ya'ni g'irromlikdan halolikka tomon yuksalishi kuzatiladi. U ham endi katta bo'lganini, g'irromlik mardlar ishi emasligini tushunib yetadi. Demak, xalq o'yinlari bolalarga yoshlikdan katta hayotga qadam qo'yishda yordamlashib, haqqoniylik, mardlik, rostgo'ylik kabi latif fazilatlarini, yolg'onchilik, g'irromlikdan esa hazar qilish lozim ekanligini o'rgatar ekan.

“Yulduzlar mangu yonadi” qissasida yozilganidek, to'y qilgan kishi, albatta, ko'pkari, olish, piyoda ko'pkari, piyoda poyga kabi xalqning uzoq yillardan beri ardoqlab kelayotgan o'yinlarini tashkillashtirishi kerak. Zulfiqor polvonning to'yida ham bularning barchasi o'tkaziladi: kechga borib to'y avjiga chiqadi. Erkaklar kurash, ayollar davra qurib o'yin boshlaydi, bolakaylar esa qorong'ida yaxshi o'ynaladigan yashinmachoq o'ynaydi. Asar bosh obrazi – Bo'ri polvon

tilidan keltirilgan quyidagi jumlar:

“...Men o'yinni bilmagan ayolni-ayol demayman, davrada olishmagan erkakni-erkak demayman!” [1:47] – uning tabiatini, insonlarga baho berishdagi o'z mezonlarini ko'rsatib beradi. Adib Bo'ri polvon xarakteristikasini, uning qanday odam ekanligini ifodalashda psixologik tasvirdan emas, aksincha, psixologik tahlil metodidan foydalanadi.

Psixologik tasvirda personaj muallif tomonidan mufassal tasvirlanib, uning sifatleri, fikrlashi, dunyoqarashi, yaqinlariga munosabati, muomalasi-yu turish-turmushi, xullas, ichki va tashqi psixologiyasi yaqqol bayon etiladi. Psixologik tahlilda esa obraz xarakteri va tashqi ko'rinishiga yozuvchi tomonidan to'xtab o'tilmaydi, kitobxon qahramonning boshidan o'tgan hodisalardan, bu voqeliklarga nisbatan uning munosabatidan, insonlar bilan qilgan dialoglaridan, uning turli vaziyatda o'zini qanday tutishidan uning etik va estetik qiyofasini yaratib olishi darkor. Biz ham Bo'ri polvonning ota-bobolaridan qolgan an'ana-yu udumlarni hayotining asosiy o'lchoviga aylantirib, ularni e'zozlaydigan, butun hayot mazmunini esa XALQ, OLISH va OILAsidan iborat deb biladigan, oriyatli, kamtar, doimo mard va halol ekanligini voqealar rivoji davomida bilib olamiz.

Olish - o'zbek xalqining qon-qoniga, jon-joniga singib ketgan, to'ylar, katta sayillar usiz o'tmaydigan, butun xalqni zanjirdek mustahkam bog'lab turadigan qadimiy xalq sporti, xalq o'yinidir.

Qissaning bosh mavzusi ham kurash deb atalmish millatning boyligini otadan bolaga, ajdoddan avlodga yetkazadigan kurashchi polvonlar va ularning qiziqarli hayoti haqidadir.

Kurashni o'tkazishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari mavjud. Avvalo, kurashni o'z davrining ko'zga ko'ringan zo'r polvonlari, hozir esa soqollari oppoq mo'ysafid chollar boshlab beradi. Ular rostakamiga olishmaydi, shunchaki kuch sinashadi, xolos. Lekin bunday boshlanma qat'iy qoidaga aylangan, negaki bu – ajdodlar udumi. Ikkinchi navbat yosh bolakaylarga, undan so'ng maktab yoshidagi bolalarga, keyin o'smirlarga...

“Bir polvon yiqilsa, origa oshnasi yo og'aynisi davraga chiqdi. Qoni tortdi...”

Or-nomus uchun kurash bolalikdan boshlanadi!

Qishloq odamlari olchin, tog'chi, parito'p, qovchin, go'rkov, yuz...deya atalmish urug'-aymoqlarga bo'linib olishadi.

Bordi-yu, chetdan polvonlar kelgan bo'lsa-chi?

Unda qishloq polvonlari birlashib, mehmon polvonlar bilan kurashadi.

Odamlar kindik qonlari tommish yer shon-sharafi, oriyati uchun olishadi.

Vatan-kindik qon tommish yerdan boshlanadi!"[1:12]

Mana-bularning bari vatanparlik ruhini rivojlantiruvchi OLIY QADRIYATlardir.

Asardagi bir voqea har bir o'quvchini g'ayriixtiyoriy ravishda o'ylashga majbur qiladi:

Sariosiyoda bo'lgan bir to'yda Bo'ri polvon Ismoil otli yosh bir polvondan yengilib qoladi. Butun Surxonga dong'i ketgan, ko'p yillar davomida kurash tushib hali yelkasi yer ko'rmagan katta polvon uchun bu juda o'g'ir haqorat edi. U el-yurt orasida bosh ko'tara olmay qoladi, shuningdek, bu hodisaning asosiy aybdori o'zi ekanini his qilib azoblanadi. "O'zingni er bilsang, o'zgani sher bil", – deydi dono xalqimiz. Bo'ri polvon esa raqibining hatto hurmatini-da joyiga qo'ymaydi. "...Davra odati bo'yicha talabgor yosh polvon qabatiga borib o'tirishi lozim bo'ldi.

Ammo Bo'ri polvon davra qoq o'rtasiga borib cho'k tushdi. Bo'ri polvon bu bilan o'zini anavi yosh bola yonida yonma-yon o'tirishga or qilishini bildirdi.

Anavi yosh bolaga ko'rpangga qarab oyoq uzatsang-chi, degan qarash qildi" [1:49].

Oqibatda, Bo'ri polvon yiqildi, qanday yiqilganini o'zi ham bilmay qoldi. Ko'zini ochgan edi-osmon to'la yulduz bo'ldi!

Polvon tushkunlikka tushmadi, aksincha, obro'siga tushgan bu dog'ni yuvib tashlashga qat'iy ahd qildi. Shu kundan kundan boshlab Ismoil polvonni ta'qib eta boshladi. Va nihoyat, Termizdagi olishda shuncha yillik zahmatlari, shuncha yillik tajribalarini ishga solib, ashaddiy raqibining kuragini yerga teggizdi. U g'oliblik zavqini surdi, zafaridan sarmast bo'ldi.

"Hay-hay-hay! Yoshlik-yoshligini, ko'pni ko'rganlik-ko'pni ko'rganligini

qildi! Tajriba! Tajriba zafar qozondi!

Bo'ri polvon qo'llarini ko'tarib, davra aylanib chopdi. Oyoqlarini osmon qilib, dorboz bo'ldi, dorboz bo'lib-dorboz bo'lib davra aylandi.

Davradan chopib chiqib hamrohlarini bitta-bittalab bag'riga bosdi. Hamrohlarini quchoqlab-quchoqlab o'pdi.

– Ko'rdingmi meni? Ko'rib qo'y!.. – dedi.

Kulayotgan yonoqlaridan munchoq-munchoq yoshlar oqdi” [1:61].

O'zbek adabiyoti gulzorining o'ziga xos bo'yi-yu jilosiga ega sara ijodkorlaridan biri Shukur Xolmirzayev ijoddida ham milliy sport-kurash epizodlarini uchratamiz. Masalan, adibning “Omon ovchining o'limi” hikoyasida yuqoridagiga mutanosib bir hodisani ko'rishimiz mumkin. Hikoyada asosiy o'rin tutgan qahramon – Omon. Uning otasi Rahmon polvon uzoq yillar olishda g'oliblikni qo'ldan bermagan edi, biroq bir davrada o'zidan yoshi kichik, kuchi ham o'rtacha bo'lgan bir polvonga yutqazib qo'yadi. Bu alamga chiday olmasdan zax yerga bo'yra to'shab, ustidan suv quyib, ko'kragini yerga berib yotadi. Oxiri o'pkasiga shamol tegdirib, yo'tala-yo'tala keyinchalik qon qusa-qon qusa olamdan o'tadi.

Bu voqea Bo'ri polvonning Ismoil polvondan yengilishini beixtiyor eslatib yuboradi, biroq Bo'ri polvonning Rahmon polvonga qaraganda qat'iyroq, sabrliroq hamda raqobatbardosh ekani oynadek ravshan ko'rinib turibdi. Negaki Bo'ri polvon ruhan cho'kib, o'zini yo'qotib qo'ymaydi, balki yanada kuchliroq g'ayrat va shijoat bilan harakat qilib oxir-oqibat o'z nomini qayta tiklab oladi. Mana bu – jasorat, ulkan jasorat!

Bo'ri polvon o'z obro'sidagi dog'larni ketkizib, el orasida yuzi yorug' bo'lgach, yangi hayot boshlashga-uylanishga qaror qiladi va brigadasidagi Suluv ismli dilbar qizni tanlaydi. Nega Suluv? Bo'ri polvonday zakiy inson umr yo'ldosh tanlashda qay mezonga asoslanadi? Suluv shunchalik barno qiz edimi?

“Suluv Bo'ri polvon ko'ngliga o'tirib qoldi.

Ko'ngliga o'tirgani- Suluv erkak zoti ko'ziga tik qaramadi.

Suluv o'z oti o'zi bilan Suluv bo'ldi.

Suluv yuzlar aql ibosi bilan shoista bo'ldi. O'roq o'rishda, uzum uzishda Suluvdan o'tadigani bo'lmadi.

Bo'ri polvon Suluvni begona qilmadi" [1:61].

Mana, Bo'ri polvonning didi-yu zakiytabiatligi. U hayotni va insonlarni aql tarozisi bilan, ko'ngil nafisligi bilan, mehnatsevarlik zavqi-yu urf-odatlar bilan, qalb go'zalligi-yu iffat pardasining jozibasi bilan o'lchaydi.

Shukur Xolmirzayevning "Bulut to'sgan oy" hikoyasini o'qir ekanmiz, ushbu holatga o'xshash voqelikni uchratamiz. Asarda Quvvatjon personaji sof qishloqi yigit, mohir yozuvchi hamda o'zgalar baxtidan sarxush bo'ladigan ezgu qalbli inson deya e'tirof etilar ekan, uning tabiatidagi qiziq bir holga duch kelamiz.

"Odatim shu: bundoq davralarda yigitlar ayollari bilan o'tiradimi, boshqa tanish juvonlar bilanmi-erkaklar bilan gaplashardim-u, ayollarning savollariga javob berardim, xolos. Ammo xotinlarga tikilib qarash...Yo'q. Bu-o'zbek odatidanmi, tabiiy andishadanmi-bilmayman" [2:215]. Tabiiyki, bu – o'zbek oilalarida beriladigan oliy tarbiyaning natijasi.

Hikoyada o'quvchining diqqatini tortmay qolmaydigan yana bir o'rin borki, unda o'zbek xonadonlaridagi fayzni qadrlaydigan, insonlarning qadim zamonlardan buyon qadrli do'sti hisoblanmish qaldirg'ochlar tavsifi uchraydi. Qanotli qadrdonlarimizning beg'araz do'stligi-yu har doim sodiq hamroh ekanligini XI asrda yashab o'tgan ulug' turkiy adib Nosiruddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asaridan o'rin olgan "Yilon va qarlug'och rivoyati" ham tasdiq etadi.

"Bulut to'sgan oy" asarida ham Quvvatjonning yozuvchilar bog'idagi ishlaydigan xonasiga bahor elchilari uya qurib oladi, shu sababli u xona derzasini qishin-yozin ochib qo'yadi. O'zbeklarda shunday gap bor: qaldirg'ochlar faqat urush yuzini ko'rmaydigan, tinch va fayzli oilalarning uyiga in quradi.

Qaldirg'ochlar tasviri Quvvatjon obrazining psixologiyasini ochib berish hamda ulardan o'ziga zarur xulosalarni chiqarib olishi uchun berilgan. Hikoyada ta'kidlanishicha, qaldirg'ochlar juftiga sadoqatli bo'ladi, ular polaponlari

temirqanot chiqarib parvoz qilishni o'rgangunlarigacha og'zida xo'rak keltirib ularni boqar ekan. Hatto ona qaldirg'och bolalari bilan uyada qolganida ota qaldirg'och unga ham xuddi polaponlari kabi og'zida yemish tutarkan.

Bir kuni g'aroyib voqea sodir bo'ladi: Nima bo'ladi-yu, ota qaldirg'och inga juda kech-ertalab saharda keladi, ona qaldirg'och esa "rashk"dan uni cho'qilab-cho'qilab tashlaydi. Buni kuzatib turgan Quvvatjon shunday hikoya qiladi:

"Men lol-u hayron edim.

Bir narsa shak-shubhasiz ediki, erkak qaldirg'och kechasi uyga kelmay qolgani uchun makiyoni uni talagan,uning miq etmasdan turib berishi esa-aybini bo'yniga olganini ko'rsatardi" [2:231].

Quvvatjon ham yozuvchilik ishlari tufayli ba'zan uyiga haftalab bora olmay qolardi, so'ngra ayolining gina qilib aytgan ilmoqli gaplarini eshitardi. Ammo u ko'p-da bularga parvo qilmasdi. Endi bu hodisa sabab xotini tushuna boshlaydi va o'z xatosini anglab rafiqasi va farzandlari yoniga borishga, ularga ko'proq vaqt ajratishga azm etadi.

Bu kabi latif milliy qadriyatlar o'chog'i hisoblangan O'zbekistonda har bir inson o'z urf-odatlari va udumlarini ardoqlaydi, ularning yerga urilishini jim kuzata olmaydi. "Yulduzlar mangu yonadi" qissasining bosh qahramoni – Bo'ri polvon mana shularni o'ylab ichdan eziladi:

"Xalq nimasi bilan xalq?

O'zining urf-odatlari bilan xalq! Ota-bobosidan qolgan milliy an'analari bilan xalq!

Ko'p urf-odatlarimizni birovlar ... birovlar o'ziniki qilib oldi! Biz qo'limizni burnimizga tiqib qoldik.

Shunday keta bersak, hademay ... o'zimizni-da boy berib qo'yamiz!

Bu yog'i kamday, ne-ne nimalarimizni eskilik sarqiti deb yo'q qildik. Xiyol bo'lmasa xalqning o'zini-da ... eskilik sarqitiga chiqarib yuborayin dedik! Bugun buni yo'qota bersak, ertaga uni yo'qota bersak, adirdagi ... podadan nima farqimiz qoladi?.." [1:43]

Asarda nafaqat hozirgi kun, balki butun kelajak davomida dolzarb

mavzulardan biri bo'lib qoladigan milliy an'analarni asrash, yurtimiz uchun o'z davrining eng katta muammosi sobiq mustabid tuzumning o'zbek xalqini mahv etmoq uchun ma'naviyatiga qilgan tahdidlari, milliy qadriyatlarini, balki butunlay o'zligini yo'q qilmoq uchun uyushtirgan xunrezliklari ro'yirot yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, mohir yozuvchi va adabiy tanqidchi Abdulla Qahhor aytganidek: “Adabiyot-atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorish uchun sarflamaslik kerak”. Tog'ay Murod hamda Shukur Xolmirzayev adabiyotning mana shu qudratli kuchidan foydalanib o'zbekning o'zligini, ma'naviy xazinasi bo'lgan milliy qadriyatlarini qalamga olgan. Ularning eng muhim vazifasi insonlarga bu ganjni asrab-avaylash zarur ekanligini uqtirish va ularni kelgusi avlodga bus-butun yetkazishdir, toki ular ham o'z navbatida o'zidan keyingi farzandlariga, nevaralariga asrlar osha meros qilib qoldirsin. Zero, “yulduzimiz mangu yonajak”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi. – Toshkent: Ziyo nashr, 2020.
2. Xolmirzayev Sh. Saylanma. 2-jild. www.ziyouz.com elektron kutubxonasi.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. I-V jildlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2020.